

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNI O'QITISHDA VATAN QAHRAMONLARI SIYMOSIDAN FOYDALANIB UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISH: SULTON JALOLIDDIN MANGUBERDI MISOLIDA

O'dayev Ravshanbek Kenjaboy o'g'li

Toshkent Farmatsevtika instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

e-mail: ravshantorayev3456@gmail.com, tel: +998946233456

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14465404>

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada, shonli tarix egasi bo'lgan Xorazmshohlar davlatini yirik nomoyondalaridan biri buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda Sulton Jaloliddin Manguberding hayoti va mashaqqatli janglari haqida ma'lumotlar mo'g'ul yozuvchilarining manbalariga tayanib ochib berilgan. Xususan, Vatan himoyasi, Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, vatanparvar inson siymosi qanday bo'lishi kerakligi haqida mazkur maqoladagi ma'lumotlardan bilib olsa bo'ladi. Zero, davlatimiz Uchinchi renessans sari dadil odimlab ketayotgan bir paytda, yoshlarimizga qahramon bobolarimiz ruhiyatini singdirib borish asosiy ustuvor masalalardan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Shaxobiddin An Nasaviy, "Anushtagin - xorazmshohlar davlati (1097-1231)", "Ota o'g'li mana shunday bo'lishi kerak", Chingizxon, Sind daryosi, Vasiliy Yan.

Аннотация: В данной научной статье на основе монгольских источников раскрыты сведения о жизни и тяжелых боях султана Джалалиддина Мангуберди, одного из великих руководителей государства Хорезмшахов со славной историей, великого государственного деятеля, умелого полководца. писателя. В частности, из информации этой статьи вы сможете узнать о защите Родины, любви к Родине, как должен выглядеть патриотичный человек. Ведь в то время, когда наша страна смело идет к Третьему Возрождению, привитие духа наших героев нашей молодежи является одним из главных приоритетных вопросов.

Ключевые слова: Шахобиддин Ан Насави, "Ануштагин - государство хорезмшахов (1097-1231)", "Вот такими должны быть отец и сын", Чингисхан, река Синд, Василий Ян.

Abstract: In this scientific article, information about the life and hard battles of Sultan Jalaliddin Manguberdi, one of the great leaders of the state of Khorezmshahs with a glorious history, a great statesman, a skillful commander, is disclosed based on the sources of Mongolian writers. In particular, you can learn from the information in this article about the protection of the Motherland, love for the Motherland, what a patriotic person should look like. After all, at a time when our country is boldly walking towards the Third Renaissance, instilling the spirit of our heroes in our youth is one of the main priority issues.

Key words: Shakhobiddin An Nasavi, "Anushtagin - the state of Khorezmshahs (1097-1231)", "This is how father and son should be", Genghis Khan, Sind river, Vasily Yan.

*"U Vatan mudofaasi uchun jonini tikkan mardlarning
shonu-shavkati o'zining shonu-shavkatidan
ko'p ustun ekanligini o'limi oldidan anglab yetdi".*

Shaxobiddin An Nasaviy

Chingizxonning xos kotiblari tomonidan bitilib, iskandarmonand yurishlar ta'rifu tavsif qilingan kitoblarning bari Shaxobiddin An Nasaviyning "Jaloliddin Manguberdi hayotining tasviri" asari oldida xira tortadi. Binobarin, yog'iy xos kotiblarining o'zlari ham, o'rni kelganda, noilojlikdan Jaloliddin Manguberding mardligi va jasorati haqida hayrat bilan yozishadi: Chingizxon daryodan oti bilan sakrab o'tgan Jaloliddinga qarab aytgan "Ota o'g'li mana shunday bo'lishi kerak" degan gap ham aslida mo'g'ullarga xizmat qilgan muarrix tomonidan tarixga muhrlangan. Keyingi davr tarixchilari esa Jaloliddin Maguberdini mo'g'ul bohqinchilari zulmidan yarim jahonni saqlab qolgan xaloskor sifatida e'tirof etishadi. Axir u butun 11 yil davomida bosqinchilarni o't halqasi orasida saqlab, ularning butun kuch-qudratini o'ziga qaratdi. Oxir-oqibat Chingizxon Iskandardan ham o'zib ketish orzusidan voz kechib, armon bilan vafot etdi. U Vatan mudofaasi uchun jonini tikkan mardlarning shonushavkati o'zining shonu-shavkatidan ko'p ustun ekanligini o'limi oldidan anglab etdi.

1221 yilning boshida Jaloliddinning xorazmlik jangchilar va qo'shni halqlar askarlaridan iborat qo'shini mo'g'ullar ustidan qozongan beqiyos g'alabalar dushmani behad sarosimaga solganligi tarixiy asarlarda aniq ravshan ifoda etilgan. Mo'g'ullar istilosiga qarshi juda ko'p sarkardalar va davlat arboblari kurashishgan. Ularning nomlari ham o'z davrining fidokorlari sifatida tarixdan joy olgan. Ammo, ko'xna tarix bu borada birinchi navbatda Jaloliddin Manguberdini o'z xotirasida avaylab asraydi. U faqat bosqinchilarga qarshi fidoiy kurashchigina emas, balki turli xalqlar ustiga mo'ru malaxday yopirilgan baloyu qazolarga o'zini tutib, mo'g'ullarning dodini bera olgan yagona lashkarboshi hamda davlat rahnamosi sifatida mangulik mulkidan o'rin egallagan. U dushman ustidan uzil-kesil g'alabaga erishib, davlatni qayta tiklash orzusi ushali shiga juda yaqin keldi. Ammo, bunga g'animning kuch-qudrati emas, o'zining itifoqchilari hamda yaqinlari sanalgan ko'plab hukmdor va lashkarboshchilarning munofiqliklari va xiyonatkorliklari yo'l qo'ymadi. Eng qaltis vaziyatlarda ular o'zlarining arziyas manfaatlarini ko'zlab, qo'shinlari bilan xorazmshohni tark etdilar. U esa yonib kulga aylangan va kuldan qayta tug'ilib, olov tarata boshlagan Qaqnus kabi o'zini ko'rsataverdi.

Jaloliddin Manguberdi charxi kajraftorning ters amallarini puchga chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Ya'ni Chingizxonning bor shonu-shavkati, qudrati asrlar o'tib uning tillarda, dillarda doston bo'lgan dovrug'i soyasiga aylandi. Ulug' muarrixlar tarix haqiqatlarini bitishda har qanday tarafkashlik hamda milliy ehtiros singari to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi xato va qusurlardan holi bo'lishgan. Shu sababli ularning asarlari ishtibohga o'rin qoldirmaydi. Ammo ayrim taniqli olimlar, ham ularning tarixni o'rganishdagi katta xizmatlariga tan bergan holda, aytish mumkinki o'zlariga yaqin mintaqalar bilan bog'liq voqealar tafsilotlarini bayon etishda va sharhlashda noholislikkacha borib yetishgan. Ular bitgan asarlarning bir qator joylarida Jaloliddin Manguberding harakatlariga nisbatan muallifning norozilik alomatlari yaqqol sezilib turadi. Bu esa xorazmshohning boshqa hududlardagi jasorati va himmati haqidagi o'zlari maroq bilan bitgan voqealar haqidagi hikoyalarga bog'lanmay qoladi. Bu haqda "Anushtagin - xorazmshohlar davlati (1097-1231)" asarini o'zbekchaga tarjima qilgan taniqli olimlarimiz Ashraf Ahmedov hamda Mahkam Maxmudovlar juda o'rinli va maqsadga muvofiq munosabat bildirishgan.

Shu o'rinda xalq qahramoni to'g'risida yaratilgan badiiy asarlar haqida ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Bu borada ham bugungi kun talablariga javob bermaslik, noholislik hamda biryoqlamalik holatlari uchraydi. Jumladan o'zbek kitobxonlarining bir nechta avlodi

o'qigan va o'rgangan Vasiliy Yanning "Chingizxon" romani haqida shunday fikr bildirish mumkin. Unda Jaloliddin Manguberdining shaxsini, avlodlarini, umuman olganda milliy qiyofasini aniq-ravshan tasavvur qilolmaslik holati ko'zga tashlanadi. Uzuq-yuluq voqealar davomida uning siymosi to'laqonli aks etmasdan qolgan. Jaloliddin Manguberdining Sind daryosini kechib o'tgandan so'nggi hayoti va jasorati haqida muallif sukut saqlashni afzal bilgan. Buni tushunsa bo'ladi. Chunki "Chingizxon" romani o'tgan asrning dahshatli 30-yillari oxirlarida yaratilgan. Shu sababli yozuvchi "xalqlar otasining" qaxru g'azabiga uchrashdan cho'chigan. Umrining so'ngida ham tovba tazarru qilmagan, ammo bu dunyodan behad armon bilan ketgan Chingizxonni o'zi yashirin ixlos qo'ygan shu "otaga" ibrat qilib ko'rsatishga intilgan bo'lsa ne ajab? Vasiliy Yan shu davrda Jaloliddin Manguberdini asarning asosiy qahramoni qilib ko'rsata olmasdi. Binobarin, o'z asarini uning nomi bilan atay olmasdi. Balki buni uning o'zi istamagandir ham. Har holda "Chingizxon" asari bugungi o'quvchini hech bir jihatdan qanoatlantirmay qolgan deyish mumkin. Bu hol olimlarimiz va adiblarimiz qadimiy va undan keyingi manbalar asosida Jaloliddin Manguberdi hayotini qayta o'rganib, voqea xodisalarini holis va chuqur taxlil qilib, yangi davr nuqtai nazaridan munosabatlar bildirib, yangi asarlar yaratishlari lozimigini taqozo etadi.

Jaloliddin Maguberdining shaxsiy kotibi Shaxobiddin An Nasaviy shunday yozadi "U sherlarning sheri va otliq yigitlar ichida eng dovyuragi edi. U yumshoq edi, jahli chiqmas edi, so'kinmasdi ham, u jiddiy edi, hech qachon kulmasdi, faqat jilmayardi va kamgap edi. U adolatni sevardi, biroq u duch kelgan suronli yillar uning ustidan g'alaba qildi va uning fe'lini o'zgartirdi. U fuqarolarning hayotini osonlashtirishni yoqtirardi, lekin tanazzul paytida boshqargani uchun jabr qilishgacha bordi".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akbar Zamonov. O'rta asr tarixiy shaxslari hayotining ayrim noma'lum sahifalari. T.: Bayoz, 2019.
2. Buniyotov Z.M., Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231), T., 1998.
3. Bo'riyev O., Toshev N., Jaloliddin Manguberdi, T., 1999.
4. Jaloliddin Manguberdi (o'zbek, ingliz, rus tilida), T., 1999.
5. Jaloliddin Manguberdi, Vatan, yurt himoyachisi, T., 1999.
6. Mirxondning "Ravzat us-safo – asarida Jaloliddin Manguberdi zikri", T., 1999.
7. Toshev N., Jaloliddin Manguberdi, T., 1999.
8. Tonariy O., Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri, T., 1999.
9. Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdi, T., 1999.
10. Shaxobiddin Muhammad al-Nasaviy, Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti, T., 1999.
11. Tonariy O., Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri, T., 1999.
12. Ibrohimovich A. H. MODERN FACTORS FOR RAISING STUDENT-YOUTH INNOVATIVE THINKING IN THE HIGHER EDUCATION //American Journal of Pedagogical and Educational Research. – 2023. – T. 15. – C. 202-206.
13. Абдурахмонов Х. И. ХОЗИРГИ ДАВРДА ЁШЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ПОТЕНЦИАЛИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МОДЕЛЛАРИ //Tafakkur manzili. – 2023. – T. 4. – C. 23-29.

14. Abdurahmonov H. I. CHARACTERISTICS OF FORMATION OF INNOVATIVE THINKING IN SOCIETY //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – T. 2. – №. 7. – C. 161-167.
15. Ibroximovich A. K. INNOVATIVE THINKING AND ITS FORMS AND TYPES OF MANIFESTATIONS. European Scholar Journal, 3 (5), 38-41 [Электронный ресурс].
16. Anvarovich P. A. et al. SUN'IIY INTELEKKTNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI, FOYDALI VA ZARARLI JIHLTLARI //PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIIY TADQIQOTLAR| JOURNAL OF PEDAGOGY, PSYCHOLOGY AND SOCIAL RESEARCH. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 7-13.
17. Anvarovich P. A. et al. SUN'IIY INTELEKKTNING KUNDALIK HAYOTIMIZGA TA'SIRI, BIZ UCHUN BU HODISA IJOBOYMI? //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2024. – T. 4. – №. 2. – C. 9-13.
18. Ibroximovich A. X. et al. "O 'ZBEKISTON-2030" STRATEGIYASINING AMALIYOTDA JORIY QILINISHI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2024. – T. 4. – №. 1. – C. 58-64.
19. Kenjaboy o'g O. R. et al. SOHIBQIRON AMIR TEMUR HARBIY BOSHQARUV TIZIMI TARIXSHUNOSLIGI //SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI. – 2024. – T. 7. – №. 2. – C. 131-136
20. Boltayeva, B. (2023). DEVELOPMENT OF COMPETENCIES FOR SELF-STUDY OF STUDENTS IN A CREDIT-MODULAR SYSTEM AS A PEDAGOGICAL PROBLEM. Science and innovation, 2(B8), 39-42.
21. Boltaboyeva, B. (2023). KREDIT-MODUL TIZIMIDA TALABALARNI MUSTAQIL BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(3), 40-42.
22. Болтаева, Б. Х., & Абдукодиров, П. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА. ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, 5(2).
23. Болтаева, Б. Х., Султонова, Л. Б., & Юсупова, Н. О. ВЕБ-КВЕСТ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ИНФОРМАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ WEB QUEST IS A DEVELOPMENT OF INFORMATIONAL SOURCE IN TECHNOLOGY. BBC 94 Z 40, 152.
24. Хашимова, Г. Ф., & Султанова, Л. Б. (2022). НАМКORLIK PEDAGOGIKASI ASOSIDAGI INTERFAOL METODLARNING SAMARADORLIGI. ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, 5(2).
25. Хусанова, К., Султанова, Л., Хусанбаева, Ю. и Абдурахимова, Д. (2020). «Средний возраст» как лучшее время человеческой жизни. Международный журнал психосоциальной реабилитации , 24 (2), 332-337.
26. Хашимова, Г. Ф., & Султанова, Л. Б. (2021). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ СФЕРЫ В РАМКАХ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ. ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, (SI-1).
27. Болтаева, Б. Х., Султанова Л. Б. ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДА ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ. Збиор артыкулов наукович рецензованич. , 186.